

## BUGUNGI KUNDA IJTIMOYIY TARMOQLARNING INSONIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Amirqulova Shoxsanam Sherzodovna  
Samarqand davlat chet tililar instituti  
2-bosqich talabasi

Ochilova Noila Farmonovna  
Ilmiy rahbar

### Annotatsiya:

Maqolada ijtimoiy tarmoqlarning insoniyat faoliyatida tutgan o'rni, ularning ijobiy salbiy tomonlari, qay maqsadda foydalanish va yoshlar ongiga ta'siri haqida yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy tarmoqlar, XXI asr, g'oyaviy mafkuraviy ta'sir, odob-axloq, ommaviy madaniyat, mobil telefonlar, virtual olam

### Kirish

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan mamlakatimizda internet yoki ijtimoiy tarmoqlar insonlarga ko'plab imkoniyatlar, qulayliklar yaratib bermoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy tarmoqlardagi dolzarb masalalarni imkon qadar kuzatib borishi haqida qo'yidagicha aytib o'tadi. "Albatta, bugungi kunda odamlarni qanday masala va muammolar o'yantirayotgani, tashvishga solayotganini yaqindan bilishda yordam beradigan ochiq manbalar, axborot tarmoqlari ko'p. Ayniqsa, televideniye, matbuot, Internet hayot nafasini, ta'bir joiz bo'lsa, har bir sohaning "yurak urishi"ni aniq-ravshan his qilishda muhim ahamiyatga ega. Shaxsan o'zim ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan yangiliklar, ular orqali bildirilayotgan dolzarb fikrlar, jamoatchilikning diqqat-e'tiborini tortayotgan voqea-hodisalar bilan imkon qadar bevosita tanishib borishga harakat qilaman."

### Asosiy qism

XXI asr – axborot texnologiyalari taraqqiyoti asri. Internet, Ijtimoiy tarmoqlar keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Aksariyat odamlarning faoliyati internet, ijtimoiy tarmoqlari orqali dunyoda sodir bo'layotgan kundalik yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni bir-biriga uzatish bilan bog'liq. Mamlakatimiz va dunyo miqyosida



sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqea-hodisalar, yangiliklar to'g'risidagi ma'lumotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda aks etib boryapti. Bu yangiliklardan xabardor bo'lishda esa internet tizimi, mobil telefonlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ancha qulay hisoblanadi. Bundan tashqari, o'zaro ma'lumot almashish yoki biror voqea-hodisaga munosabat bildirish, o'z fikrini bayon etish yoki o'zaro muloqot qilishda ijtimoiy tarmoqlar juda qulay vositadir. Bularning bari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar uchun o'z fikrlari, qarashlari va tuyg'ularini bayon qilishda tengsiz imkoniyat ekanligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham ijtimoiy tarmoqlar har qanday yoshdagi odamni bemisl darajada o'ziga maftun qilib turadi. Ijtimoiy tarmoqlarining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda uning yoshlar ma'naviyatiga, ularning yangiliklarga chanqoq ongiga salbiy ta'sirining ham guvohi bo'lyapmiz. Aksariyat yoshlar o'zlarining qimmatli vaqtlarini behuda sarflab, ijtimoiy tarmoqlardan kun bo'yi foydalanishadi. Zimdan e'tibor bersak, internet kafelariga serqatnov yoshlar ayniqsa o'smirlar u yerga borishib, har xil buzg'unchi g'oyalar ruhida kompyuter o'yinlarini tomosha qilayotganligini, saviyasiz narsalar bilan vaqtlarini besamar o'tkazayotganligiga guvoh bo'lyapmiz. Bugungi kunda mashhur bo'lgan ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifasiga ega bo'lmagan insonni topish qiyin. Ayniqsa, bu holatning yuqori darajasini yoshlar orasida ko'rish mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, dunyo yoshlari, jumladan mamlakatimizda o'sib kelayotgan yosh avlod asosiy vaqtining taxminan 50% foizi virtual muloqotga sarflanmoqda. Gap shundaki, ko'pchilik yoshlar o'z hayotlarini ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmaydilar. Kishining ta'bini xira qiladigan jihati, ijtimoiy tarmoqlar orqali «ommaviy madaniyat» niqobi ostida yurtimizga buzuq g'oyalar, axloqsizlik, g'ayriinsoniy odatlar kirib kelmoqda. Millatning tarixi, o'tmishdagi qadriyatlarini rad etuvchi, «ommaviy madaniyat»ni targ'ib etishga undovchi mafkuraviy kurashlarning barchasi aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borilmoqda. Internet tizimining ijtimoiy tarmog'idan olingan narsa to'g'ri, ishonchli va zararsiz ekanini bilish kerak. Yaxshi-yomonning farqiga bormagan yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilgan har qanday ma'lumot-xabarlarni haqiqat deb qabul qilayotgani jiddiy xavotirga solmoqda. Ular g'arazli maqsadlari yo'lida yoshlarda buzg'unchilik, begunoh odamlar qonini nohaq to'kish kabi jinoyatlarni avj oldirib, fuqarolar tinchligini buzib, xalq orasida nizo chiqarishga harakat qilishmoqda. Sarhadsiz internet dunyosiga kirgan yoshlar vaqt, umr g'animat ekanini doimo yodda saqlamog'i lozim. Zero, bu global tarmoq bepoyon hududlarga ega bo'lib, unda inson adashib soatlab, kunlarini samarasiz o'tkazib yuborish bilan birga yoshlarimiz o'jar va qaysar, keksalarning aytganini nazar-pisandga olmaydi,



ajdodlar qadriyatlarini inkor etadi. Qayd etish joizki, «ommaviy madaniyat» namoyon bo'lish xususiyatlariga ko'ra, til, din, e'tiqod, irq, makon, xalq va millat tanlamaydi. U jamiyatning madaniy va estetik qadriyatlariga raxna solish orqali ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik tamoyillarini buzadi. Zero, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda, albatta, barchamiz media xavfsizlik haqida, G'arb davlatlari olib borayotgan mafkuraviy kurash turlari haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz va buni yoshlarga o'rgatishimiz lozim. Bugun dunyo aholisining 90 % dan ortig'ida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyati mavjud. Foydalanayotganlar soni ham yildan-yilga ortib bormoqda. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra insonlarning ijtimoiy tarmoqda sarflaydigan minimal vaqti 3 soatni tashkil etadi. Bir qarashda kishini xavotirga soladigan hech narsa yo'qdek.

## **XULOSA**

Bizning davrimizda real hayotdan butunlay uzilib qolish mumkin emas. Hozirgi kunda jamiyatimiz hayoti fan-texnologiyalar rivoji bilan tobora uyg'unlashib borayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Shunday ekan, har birimiz ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatiga amal qilishimiz, o'z navbatida, uni atrofdagilarga ham o'rgatish foydadan xoli bo'lmaydi

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.1 Таранов П. Энциклопедия высокого ума. М., 1999, с.16
- 2.2 Rajabov H.I “Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiyamaliy konferentsiya materiallari T.: “Fan va texnologiya” 2020 yil, B-207
- 3.3 cyberleninka .ru
- 4.4 in-academy .uz

